

SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMI

Boltayev Mag'rurbek Allayarovich
Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi
Xorazm viloyat filiali umumiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha direktor
o'rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va uning asosiy xususiyatlari yoritilgan.

Аннотация. В статье рассматривается система государственно-частного партнерства в сфере здравоохранения, её социально-экономическая необходимость, существующие возможности и основные особенности.

Abstract. This article discusses the public-private partnership system in the healthcare sector, its socio-economic necessity, existing opportunities and its main features.

Kalit so'zlar. Sog'liqni saqlash, soha, davlat, tizim, sheriklik, davlat-xususiy sheriklik tizimi.

Ключевые слова: Здравоохранение, отрасль, государство, система, партнёрство, система государственно-частного партнерства.

Key words. Healthcare, sector, state, system, partnership, public-private partnership system.

Kirish. Sog'liqni saqlash sohasini samarali va barqaror rivojlantirishda **davlat-xususiy sheriklik** tizimini joriy qilish muhim amaliy mexanizm sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu tizim davlat va xususiy sektorning hamkorligi asosida tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarni kengaytirish uchun zarur bo'ladi. **Davlat-xususiy sheriklik**ning asosiy maqsadi davlat budjetiga ortiqcha yuk solmasdan, xususiy investitsiyalarni jalb etish orqali sog'liqni saqlash sohasidagi muammolarni yechishga asoslanadi. Bu borada xususiy sektor yangi klinika va markazlar qurilishi, zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, xizmat ko'rsatishning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat esa huquqiy asos yaratish, nazorat qilish va aholi manfaatlarini himoya qilish vazifasini bajaradi. Bu borada O'zbekistonda so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda aniq qadamlar tashlanmoqda **dializ markazlari, onkologiya va diagnostik xizmatlarni** davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, **2019-yilda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun [1]** ushbu jarayonning huquqiy asosini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar sharhi. Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimini shakllantirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, tadqiqotlarga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda xususiy sherikka ajratilgan yer uchastkalari, sotib olingan tibbiy va boshqa uskunalar, shuningdek, ular tomonidan qurilgan obyektlar bitimning amal qilish muddati tugagandan so'ng davlat sherigiga qaytarib topshiriladi [2].

Boshqa tadqiqotlarda esa, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari sog'liqni saqlash sohasiga qarashli budget tashkilotlari davlat mulki bo'lib qolishi asoslanadi [3]. Bunday shartnomalarni tuzish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, konsessiya shartnomasi tarkibida shartnomaning aniq maqsadi ko'rsatilishi kerak. Ya'ni, u obektni rekonstruksiya qilish va uni ekspluatatsiya qilish bilan belgilanadi.

Ammo, boshqa tadqiqotlarga asosan, davlat-xususiy sheriklik modelining keng tarqalishiga qaramay, uni qo'llash bo'yicha olimlar o'rtasida konsensus mavjud emasligini ko'rsatadi [4]. Unga asosan, adabiyotlarda berilgan ta'riflar orasida davlat-xususiy sheriklikni davlat sektori va bir yoki bir nechta xususiy shaxslar o'rtasidagi kelishuv sifatida ta'riflanadi. Ikkinchisi davlat tomonidan belgilangan talablarga javob beradigan va aksiyadorlar uchun foyda keltiradigan xizmatni taqdim etadi. Chunki, ikki talab har bir tomon uchun ajratilgan risklarga bog'liq bo'ladi. Boshqa tadqiqotlarga asosan, 2019-yilda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini bilan bog'liq ko'pgina xavfni aniqlash uchun anketa so'rovi va professional tasdiqlashni birlashtirgan tadqiqot o'tkazilgan [5].

Shuningdek, olib borilgan tadqiqotlarga asosan, tibbiyot tashkilotlarini xususiylashtirish va moliyalashtirish yuzasidan sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik mexanizmi quyidagi yo'nalishlarga imkon berishi asoslanadi [6]:

- tarmoqqa qo'shimcha mablag'larni jalb qilish va shu orqali davlat va hudud budjetlari xarajatlarini optimallashtirish;
- davlat va xususiy sektor o'rtasida loyihalarni amalga oshirish risklarini taqsimlash;
- texnologik, bilim talab qiluvchi va intellektual resurslardan foydalanish imkoniyatini baholash;
- tibbiyot tashkilotlarini rekonstruksiya qilishga mablag' jalb qilish;
- raqamli tibbiyotni va platformalarni shakllantirish.

Tahlil va natijalar. Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimini amalga oshirish uchun unga tegishli loyihalar iqtisodiy samaradorlikni ifodalaydi. Bozor sharoitida loyiha tomonidan yaratilgan ta'sir to'liq baholanmasa-da, investitsiyalar samaradorligini baholashning maxsus usullaridan foydalaniladi. Ushbu holat turli sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Ba'zi loyiha natijalari uchun ularni o'z vaqtida baholash lozim bo'ladi. Ammo, loyihaning institutsional doirasidan tashqarida miqdoriy jihatdan hisoblangan loyihada ishtirok etmaydigan subyektlar tomonidan olinadi. Davlat bozor narxlari, ish haqi va foiz stavkalarini davlat imtiyozlari va imkoniyatlar xarajatlarini aks ettirish bilan belgilanadi. Shunga asosan, davlat sektoridagi loyihalar samaradorligini

baholashda loyihaning barcha real natijalarini aniqlash birinchi navbatda e'tiborga olinadi. Ushbu maqsadda jahon amaliyotida turli uslubiy texnikalar ishlab chiqiladi. Bu borada foyda-xarajat tahlili, iqtisodiy samaradorlik tahlili va foyda-xarajat tahlili kabi yondashuvlarni asoslaydi.

Keyinchalik, loyihani amalga oshirishning barcha variantlari taklif qilingan ko'rsatkichlar nuqtai nazaridan baholanadi va integral sifat ko'rsatkichiga umumlashtiriladi. Shundan so'ng, ular loyihani amalga oshirish xarajatlari bilan bog'lanadi. Ularning har birida tadqiqotchilar turli obyektiv funksiyalardan foydalanadilar. Ammo, ushbu usullar uchun umumiy va dolzarb vazifa sifatida iqtisodiy samaralar, jumladan multiplikativ ta'sirlar to'liq baholanadi. Bu esa loyihaning iqtisodiy tizimiga kompleks ta'sir sifatida qaraladi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalari uchun universal tizim sifatida barcha darajadagi davlat hokimiyati organlari tomonidan xususiy investorlarni keng jalb qilgan holda loyihalarni amalga oshirishning turli variantlarini baholash va solishtirishda foydalaniladi. Bu bevosita sog'liqni saqlash sohasida obyektini qurish bosqichida yuzaga keladigan multiplikator soliq samarasi hajmi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri soliq ta'siri bilan solishtirishga imkon beradi. Biroq, uning qiymati ko'p jihatdan hududiy ishlab chiqarish omillaridan foydalanish koeffitsientiga bog'liq bo'ladi. Ular orqali davlat xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda yakka tartibdagi hisoblarni ajratish imkonini beradigan qo'shimcha statistik ma'lumotlarni to'plash, matritsani to'ldirish jarayonida statistik va matematik modellash usullaridan keng foydalanish va multiplikatorini hisoblash jarayonida alohida institutsional sektorlarda sarflashga o'rtachadan maksimal moyillikka o'tish kabilar hisobga olinadi.

Darhaqiqat, sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik aholiga yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatish, infratuzilmani yaxshilash va davlat xarajatlarini optimallashtirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu tizim orqali innovatsiyalarni tez joriy qilish, raqobat muhitini yaratish va tibbiy xizmatlarning shaffofligiga erishish mumkin. Ushbu mexanizmlar sohani modernizatsiya qilish va umumiy sog'liqni saqlash tizimini barqaror va inklyuziv rivojlantirishda qo'llaniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha davlat-xususiy sheriklikning **asosiy vazifalari va maqsadlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:**

- **infratuzilmani rivojlantirish** - yangi shifoxonalar, klinikalar, diagnostik markazlar qurish va jihozlash;

- **sifatli tibbiy xizmatni kengaytirish** - xususiy sektorning menejment tajribasi va samaradorligidan foydalanish.

- **davlat xarajatlarini optimallashtirish** - investitsiyalarni xususiy sektorga yuklatish orqali budjet yukini kamaytirish;

- **tibbiy kadrlar salohiyatini oshirish** - kadrlarni qayta tayyorlash va raqobat muhitida sifatni oshirish;

- **innovatsiyalarni joriy etish** - raqamli texnologiyalar, telemeditsina, sun'iy intellekt kabi yangiliklarni joriy etish.

Xulosa. Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimini rivojlantirish xalq salomatligini yaxshilash, tibbiy xizmatlarni zamonaviylashtirish va sohani moliyaviy barqarorlikka olib chiqishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ushbu hamkorlik modeli sog'liqni saqlash tizimida innovatsiyalarni tez joriy etish, raqobat muhitini shakllantirish va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada, sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sherikligini loyiha shaklida tashkil etish orqali infratuzilma obyektlarini ishga tushirish jarayonlarini yanada jadallashtirishga, ular bo'yicha budget xarajatlarini samarali sarflanishini ta'minlashga va ko'proq iste'molchilarga sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlashga erishiladi. Bu holatda qurilish, tijorat, moliyaviy risklar va aholiga xizmatlar ko'rsatish funksiyalari qismini xususiy sherikga o'tkazish ishlari bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/4329270>
2. Rajabov O'.D. Sog'liqni saqlashda davlat - xususiy sheriklik shartlarining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. // Iqtisod va moliya, 2020, 3(135). - 126 b.
3. Kasimova G.A. Sog'liqni saqlash sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 1/2024, yanvar-fevral (No00069). - 9 b.
4. Mota J., Moreira A.C. The importance of non-financial determinants on public-private partnerships in Europe, Int. J. Proj. Manag. 33 (7) (2015) 1563–1575, <https://doi.org/10.1016/j.ijproman.2015.04.005>
5. Zhang X., Wang L. Causal relationships of risk factors in PPP waste-to-energy incineration projects, Int. J. Archit. Eng. Constr. 7 (3) (2018), <https://doi.org/10.7492/IJAEC.2018.018>. Sep.
6. Роднянский Д.В. Государственно-частное партнерство в сфере здравоохранения: региональный анализ. // Международный журнал прикладных наук и технологий «Integral», №1, 2019. – с. 135.